



**FARG'ONA VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**FARG'ONA VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**

2022- yil yanvar-iyul

2022- yil yanvar-iyul oylari uchun Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-iyul
oylariga,

Farg'ona viloyatida jami
4 355,4 mlrd. so'mlik qurilish ishlari
bajarilib, o'sish sur'ati 2021- yilning
yanvar- iyul oylariga nisbatan 102,9 %ni
tashkil etdi.




Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish
tashkilotlari, kichik korxona
va mikrofirmalar hamda norasmiy
sektorlarda amalga oshirilgan ishlar
tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari
mulkchilik shakli, davlat va nodavlat
bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi
bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi
bu — o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish
ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy
ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish
ishlari natijasidir.



2022- yil 1-avgust holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar

**Qurilish sohasi mamlakatimiz
milliy iqtisodiyotining barqaror
o‘sishiga o‘zining munosib hissasini
qo‘sib kelayotgan sohalardan
hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat
ko‘rsatayotgan korxona va
tashkilotlarning soni 2021- yilning
mos davri bilan solishtirganda o‘sish
sur’ati 108,1 % oshgan (284 birlik).**

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaraganda:

Binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 55,3 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 107,6 foizga oshgan (149 birlik);

Fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 12,6 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 124,9 foizga oshgan (95 birlik);


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 32,1 foiz ulushni va 103,4 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi (40 birlik).



Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar, birlik

	holatiga:		o‘tgan yilga nisbatan, %da
	01.08.2021- y.	01.08.2022- y.	
Farg‘ona viloyati	3507	3791	108,1
Farg‘ona sh.	941	1031	109,6
Qo‘qon sh.	349	356	102,0
Quvasoy sh.	124	130	104,8
Marg‘ilon sh.	347	334	96,3
Oltiariq	117	140	119,7
Qo‘shtepa	108	113	104,6
Bag‘dod	153	178	116,3
Buvayda	134	137	102,2
Beshariq	94	100	106,4
Quva	150	155	103,3
Uchko‘prik	194	203	104,6
Rishton	82	104	126,8
So‘x	68	88	129,4
Toshloq	143	145	101,4
O‘zbekiston	86	102	118,6
Farg‘ona	110	142	129,1
Dang‘ara	139	141	101,4
Furqat	79	86	108,9
Yozyovon	89	106	119,1

2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini ulushi, %da



Joriy yilning yanvar-iyul oylariga, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 543,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 139,2 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan 3,4 % punktga ko'payib, 12,5 %ni tashkil etdi.

**2022- yil yanvar-iyul
oylariga yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan
qurilish ishlari**



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʼp ulushi Margʼilon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 39,4 % yoki 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 126,7 % oʼsish surʼati), Fargʼona shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 26,7 % yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 161,6 % oʼsish surʼati) va Qoʼqon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 10,3 % yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 106,4 % oʼsish surʼati)ga toʼgʼri keldi.



Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-iyul oylariga kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 66,4 %i to‘g‘ri kelib, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga ko‘rsatkichiga nisbatan 2,4 foizga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 97,6 %ni tashkil etgan holda 2 894,2 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, %da

68,8
2021- yil
yanvar-iyul

66,4
2022- yil
yanvar-iyul



Ma’lumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Farg‘ona shahri (973,9 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 106,9 %), Marg‘ilon shahri (393,0 mlrd. so‘m yoki 119,3 %), Qo‘qon shahri (229,7 mlrd. so‘m yoki 104,6 %) va Qo‘shtepa tumaniga (205,5 mlrd. so‘m yoki 180,6 %) to‘g‘ri keldi.


Qurilish ishlarining umumiyl hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 21,1 %ni tashkil etdi yoki 917,6 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 104,5 %ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 226,3 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 4 129,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 5,2 % va 94,8 %ni tashkil etdi.




**2022- yil yanvar-iyul oylaridagi
Farg'onaga viloyatida qurilish ishlari**

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2022- yil yanvar-iyul oylarida

Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning 71,7 %i yoki 3 121,6 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 436,7 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 14,0 %ni tashkil etdi.



Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 824,9 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 26,4 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari


2022- yil yanvar-iyul oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya va qayta quollantirish (mlrd. so'm)
Farg'ona viloyati	4 355,4	102,9	3 121,6
Farg'ona sh.	1250,6	107,8	834,6
Qo'qon sh.	347,3	108,7	246,3
Quvasoy sh.	111,5	101,7	84,6
Marg'ilon sh.	630,5	110,6	508,0
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	157,1	106,2	102,1
Qo'shtepa	282,0	148,5	145,7
Bag'dod	208,7	98,7	120,7
Buvayda	129,7	108,6	106,2
Beshariq	102,9	123,3	54,2
Quva	99,1	71,0	98,4
Uchko'prik	100,2	71,3	96,6
Rishton	70,8	96,1	52,2
So'x	108,4	114,9	79,5
Toshloq	159,2	115,9	132,1
O'zbekiston	112,8	93,6	108,7
Farg'ona	117,1	72,5	73,5
Dang'ara	142,3	71,7	101,0
Furqat	94,6	70,4	65,7
Yozyovon	130,6	108,5	111,5

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 11,0 %ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,9 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,0 % punktga kamayib, 61,1 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2021- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,9 % punktga kamayib, 27,9 %ni tashkil etdi.

Ulushi, %da

Yirik qurilish
tashkilotlari

Kichik korxona
va mikrofirmalar

Norasmiy
sektor

11,0

8,1

61,1

63,1

27,9

28,8

2021- yil
yanvar-iyul

2022- yil
yanvar-iyul




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 17,7 %ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 2,5 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 81,0 % (1,7 % punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektoring ulushi 1,3 %ni tashkil etdi (0,8 % punktga ko'paydi).




Ulushi, %da




Yirik qurilish tashkilotlari



2021- yil yanvar-iyul



Kichik korxona va mikrofirmalar




Norasmiy sektor



2022- yil yanvar-iyul


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 3,3 % punktga ko'paydi va 13,8 %ni tashkil etdi. Qolgan 86,2 %i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 3,3 % punktga kamaydi.



2022- yil yanvar-iyul oylaridagi
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Qurilish ishlari hajmi yuqori bo'lgan shahar va tumanlar



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Tel.: 73 241-98-42